

LAKUNA VA LAKUNAR SO'Z OPPOZITSIYASI

Kasimova Ma'rifat Badritdinovna

Andijon davlat chet tillari instituti

*Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası dotsenti vazifasini bajaruvchi,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada madaniyatlararo va tillararo muloqotda lakunaning o'rni va unga asos bo'luvchi til birliklari esa lakunar so'zlar ekanligi, ularning milliy-madaniy mazmunni ifodalashdagi o'rni hamda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalalari tahlil qilinadi. Lakunarlar muayyan xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi til birliklari sifatida tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *til va madaniyat, madaniyatlararo muloqot, lingomadaniy birliklar, lakuna, lakunar so'zlar, madaniy ma'no.*

Madaniyat til evolyutsiyasi bilan birga rivojlanadi. Biroq, til tarixi madaniyat tarixini takrorlamaydi, balki so'z va iboralarda madaniy konnotatsiya tarzida o'z izini qoldiradi. Obrazli asos bilan tavsiflanadigan frazeologik va paremiologik til birliklari "madaniy konnotatsiya" tushunchasi bilan bog'liqdir. So'zlashuvchilarning dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq bo'lgan obrazli-situativ mazmun bilan to'yinganlik madaniy konnotatsiya markazi hisoblanadi.

Ma'lumki, til madaniyatning tarkibiy qismi va o'zi mansub bo'lgan mana shu madaniyatni aks ettiruvchi, saqlovchi hamda avloddan-avlodga uzatuvchi muhim vositadir. Biroq milliy madaniyat elementlarining til tizimiga o'tishi jarayonida o'sha madaniyat tashuvchisi bo'lgan insonning olam haqidagi tasavvur va qarashlari, milliy tafakkur tarzi va tajribaviy bilimlari ham qo'shiladi. Demakki, til birliklari orqali voqelangan olamning lisoniy manzarasi tashqi olamning oddiy, to'g'ridan-to'g'ri nusxasi emas, kengaytirilgan va to'yintirilgan in'ikosi deb aytishimiz mumkin.

V.A.Maslova “lingvomadaniy birliklar” sifatida quyidagilarni belgilaydi:

- 1) muqobilsiz leksema va lakunalar;
- 2) mifologik til birliklari: tilda mustahkamlangan arxetip va mifologemalar, marosim va e'tiqodlar, an'ana va urf-odatlar;
- 3) tilning paremiologik fondi;
- 4) tilning frazeologik fondi;
- 5) etalon, stereotip, ramzlar;
- 6) tilning metafora va obrazlari;
- 7) tilning stilistik imkoniyatlari;
- 8) nutqiy etiketlar;
- 9) muloqot odobi.

Professor N.Mahmudov madaniy mentalitetni o'zida yorqin aks ettiruvchi til birliklari sifatida *frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg'un o'xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so'zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifologemalar, lakunalar, pretsedent birliklarni* ko'rsatadi. Sh.Usmonova ham lingvomadaniy birliklarni tavsiflashda N.Mahmudov fikrlariga tayanadi. Demak, bunday yondashuvlar madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgan barcha til birliklari lingvomadaniy qatlam yoki lingvokulturema bo'la oladi degan xulosaga olib keladi. Bizningcha, shu o'rinda, har ikkala tasnifdagi “lakuna” atamasiga aniqlik kiritish zarurati mavjud.

Lakuna – (lot. lacuna - *chuqurlashuv, bo'shliq*) 1. Anatomiyada chuqurlashuv, to'qimalar yoki organlar orasidagi erkin bo'shliq.

2. Matnda bo'sh joy, bo'shliq, etishmayotgan joy.

Tadqiqotchi M.Shukurovaning fikricha, “bu tarzda *muqobilsiz leksema va lakunalar* (V.A.Maslova tasnifiga ko'ra – ta'kid bizniki) deb ajratish mantiqan to'g'ri emas. Chunki bu ikki tushuncha bir-biriga nisbatan sabab→natija pozitsiyasida turadi, ya'ni bir tildagi muqobilsiz leksema ikkinchi tilda lakuna hosil qiladi. Muqobilsiz leksema madaniy jihatdan “to'yingan” bo'lsa, aksincha, lakuna ana shu tushunchani ifodalash imkoniyati bo'lmagan “bo'shliq”dir”. Biz ham, aynan, mana shu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda, boshqa tilda lakuna hosil

qiladigan so'zlarni “**lakunar so'zlar**” atamasi bilan nomlashni taklif qilamiz.

Lakunarlik masalasida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, hatto, monografik planda tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, uning lakunaga asos bo'lgan tildagi o'rni va tavsifi masalasi aniq echimini topgan emas. R.A.Jumamuratovning “Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi leksik-frazeologik lakunalar tadqiqi (chog'ishtirma aspekt)” mavzusidagi dissertatsiya ishining birinchi bobi “Lakunalar milliy-madaniy o'ziga xoslikni ifoda etish usuli sifatida” deb nomlangan. Mantiqan, milliy-madaniy o'ziga xoslikni ifoda etish lakunaning emas, lakunaga asos bo'luvchi so'zning xususiyati hisoblanar ekan, “bo'shliq”, “ochiq joy” ma'nolarini bildiruvchi “lakuna” atamasini milliy-madaniy til birliklariga nisbatan qo'llash mantiqan to'g'ri emas. Shuning uchun bunday til birliklari “lakunar so'zlar” deb nomlash o'rinlidir. Demak, ekvivalentsiz leksikaning bir turi sifatida belgilash mumkin bo'lgan **lakunar so'zlar** – bir til va madaniyat tizimida mavjud bo'lib, ikkinchi til egalarining lug'ati va tafakkurida uchramaydigan, milliy-madaniy jihatdan xoslangan "bo'shliqlar", ya'ni lakunalar hosil qiladigan so'zlardir. Lakunar so'zlar muayyan millatning olamni o'ziga xos tarzda kategoriyalash va kontseptuallashtirish xususiyatini ko'rsatadi: *chilla* (qish va yoz chillasi, chaqaloq va kelinning chillasi), *suyunchi*, *is chiqarish*, *ma'raka*, *kelin salom*. Masalan, "chilla" so'zi boshqa tillarga "40 kunlik davr" deb tarjima qilinsada, o'zbek milliy tafakkurida u tibbiy, astronomik va mistik-ritual madaniy konnotatsiyalar zanjiriga ega bo'lib, boshqa madaniyatlarda uchun lakuna hisoblanadi.

Tadqiqotchi N.Sh.Kurbanazarova etnografizmlarni lakuna hisoblar ekan, “Lakuna lingvomadaniy birliklar orasida muqobilsiz leksikaning eng yorqin misoli bo'lib, unda milliy madaniyat elementlari namoyon bo'ladi” deb ta'rif bergani holda fikrini davom ettirib, “etnografizmlar o'zga xalqlar uchun lakuna hisoblanadi” deb yakunlaydi. Odatda, ko'pchilik tadqiqotchilarning tavsifida mana shu nuqtada atamalar o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Bir tilda **etnografizm** → ikkinchi tilda **lakuna**, shuning uchun “lakuna lingvomadaniy birliklar orasida muqobilsiz leksikaning eng yorqin misoli bo'lib, unda milliy madaniyat elementlari namoyon

bo'ladi" deyish noto'g'ri, chunki lakuna nolga teng ($\emptyset$) bo'shliq, "lingvomadaniy birliklar orasida muqobilsiz leksikaning eng yorqin misoli bo'lib, unda milliy madaniyat elementlari namoyon bo'lgan" so'z esa lakuna emas, *etnografizm*, *muqobilsiz leksika*, *realiya kabi* atamalar bilan nomlanadigan lakunaga asos bo'lgan **lakunar so'zlardir**.

Shunday qilib, lakuna – bir tilda mavjud madaniy to'yintirilgan tushuncha va narsalarni nomlovchi so'zlarning boshqa bir tilda bo'shliq hosil qilishini anglatar ekan, ikkinchi tildagi lakunalarga nisbatan birinchi tildagi lakunar so'zlar oppozitsiya hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 286 b.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2001.
3. Махмудов Н. Тил тизими тадқиқи. –Т.: Мумтоз сўз, 2013.
4. Шукурова М.Х. Мустақиллик даври ўзбек шеърлятида "аёл" концепти (О.Ҳожиева ва Э.Сиддиқова асарлари мисолида): Филол.фан.б.фалс.д-ри (PhD) дисс... автореферати. Фарғона, 2023.
5. Энциклопедический словарь // <https://sanstv.ru/dict/лакуна>
6. Қурбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.бўйича фалс.д-ри (PhD) дисс... автореф. Термиз, 2021.